

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining SIFAT SOHASIDAGI SIYOSATI

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarini o‘z tarmog‘i bilan qamrab olgan, zamonaviy texnologiyalar asosida barcha turdagi telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yirik telekommunikatsiya operatori hisoblanadi.

Kompaniya Xalqaro Elektraloqa ittifoqi (XEI), Aloqa sohasidagi mintaqaviy hamdo‘stlik (ASMH) va “Intelsat” sun‘iy yo‘ldosh aloqasi tashkiloti kabi xalqaro aloqa tashkilotlari bilan doimiy ravishda hamkorlik qiladi, xalqaro telekommunikatsiya loyihalarida ishtirok etadi, shuningdek, xorijiy operatorlar hamda telekommunikatsiya qurilmalari (uskunalari)ni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan ikki tomonlama hamkorlik qiladi.

Kompaniyaning vazifalarini, telekommunikatsiya sohasidagi ichki va tashqi omillarni inobatga olgan holda, Kompaniya rahbariyati va xodimlarining sifat sohasida o‘z oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadlari - abonentlar va manfaatdor tomonlarning “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasiga Markaziy Osiyodagi yetakchi telekommunikatsiya kompaniyasi sifatida ishonchini qozonish va ushbu ishonchni saqlab qolishdir.

Kompaniya o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun:

- Kompaniyani rivojlantirish bo‘yicha marketing strategiyasini olib boradi, abonentlar uchun aniq afzalliklarni o‘zida mujassam etgan savdo brendi imijini yaratadi va qo‘llab-quvvatlaydi;

- telekommunikatsiya tarmoqlari infratuzilmasini kengaytiradi, eng yangi texnologik qurilmalarni modernizatsiya qiladi va joriy etadi, ma‘lumotlar uzatish tarmoqlarini, keng polosali ulanishni, shu jumladan, optik tolali aloqa liniyalarini beshinchi avlod mobil aloqa tarmoqlarini (5G) rivojlantirish va “Internet of Things” texnologiyasidan foydalanish uchun tashkil qiladi;

- bulutli texnologiyalar xizmatlari va “Big Data” katta ma‘lumotlar almashinishida iste‘molchilarning tobora ortib borayotgan talablarini qondirish maqsadida Ma‘lumotlarni qayta ishlash markazlarini modernizatsiya qiladi va kengaytiradi;

- xorijiy davlatlarning operatorlari bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali eksport salohiyatini oshiradi;

- jamoaviy ish, korporativ madaniyat, motivatsiya tizimi, malaka oshirish mexanizmlari va kadrlarni tanlashning zamonaviy usullarini joriy etish orqali Kompaniyaning maqsadlariga erishish bo‘yicha belgilangan ishlarga xodimlarni jalb qiladi.

Kompaniya faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Kompaniya rahbariyati quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- sifat menejmenti tizimi bo‘yicha belgilangan barcha qonunchilik talablari va me‘yoriy talablarni qo‘llash;

- abonentlar va manfaatdor tomonlarning talablarini bajarish;

- sifat sohasidagi maqsadlar va vazifalarni belgilash;

- sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish.